



**“O’ZBEKISTON TEMIR YO’LLARI” AJ EKSPLUATATSION  
FAOLIYATINING TEXNIK – IQTISODIY KO’RSTAKICHLARI  
KLASSIFIKATSIYASI**

***Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna***

*dotsent v.b., Toshkent davlat transport universiteti*

Temir yo‘l transportining ekspluatatsiya faoliyati (ishi) – bu tashish jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bilan bog‘liq barcha temir yo‘l korxonalari va tarkibiy tuzilmalarining ishlab chiqarish faoliyatidir. Temir yo‘lning ekspluatatsiya ishi temir yo‘lni barcha element va tizimlarini birlashtiradi.

Temir yo‘lning espluatatsion faoliyati quyidagi faoliyat doiralarini o‘z ichiga oladi:

- Texnik normalashtirish - yuk va yo‘lovchi tashishning ma'lum hajmini bajarish, shuningdek keyingi davrlarda tashish hajmini rejalashtirish uchun poyezd va yuk ishlarining oylik normalarini ishlab chiqish;
- Operativ rejalashtirish – operativ sharoitda yuzaga keladigan ish faoliyatini samaradorligini ta’minlash;
- Tashish jarayonini tartibga solish - barcha bo‘limlarning barqaror ishlashini ta’minlash va texnik me’yorlarni amalga oshirish;
- Poyezdlar harakatini dispatcherlik boshqarish (poyezd dispatcheri tomonidan bajariladi) poyezdlar harakati va manyovr ishlarini uzluksiz nazorat qilish va boshqarishni ta’minlashdan iborat.
- Lokomotiv parki ishini boshqarish;
- Ekspluatatsion faoliyatning hisobi va tahlili - bu transport ishini tashkil etishdagi to’siq va kamchiliklarni aniqlash, hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash. **[Ошибка! Источник ссылки не найден.]**

Tashish ishlarini amalga oshirishda maksimal tez imkoniyatlardan foydalangan holda poyezdlar harakatini havfsizligini ta’minlashda minimal



harajatlarni sarflab amalga oshirish temir yo‘l ekspluatasiya ishining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Masalan, temir yo‘l yuk poyezdlari tarkibining qat’iy me’yorlarini ushlab turishi shart, buning natijasida vagonlarni to‘plash vaqtini oldindan aytib berish juda qiyin.

Chunki, berilgan muddatga yuklarni kafolatli yetkazib berilishini ta’minalash mumkin emas.

Ishning jadallahuvi ba’zida ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirishga to‘sinqinlik qiladi. Tejash o‘rniga ularning ortishi kelib chiqadi.

Shuning uchun hozirgi sharoitda ekspluatatsiya ishlarini boshqarish minimal xarajatlar bilan tashishga bo‘lgan talabni sifatli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ekspluatasiya ishini hususiyatlari quyidagicha:

Turli hil tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda amalga oshiriladi – ya’ni temir yo‘llar, stansiyalar, depolar, tashish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar, ekspeditorlik, logistik kompaniyalar va boshqalarning barchasi birgalikda tashish ishini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish faoliyati bir temir yo‘l ichida boshlanib boshqa temir yo‘l korhonalarida ichida davom etib, tugaydi. Boshqa sanoat korhonalarida farqli ravishda temir yo‘lda nafaqat mehnat predmeti emas(yuklar), balki mehnat vositalari ham o‘tishi mumkin(vagon va lokomotivlar)

Lokomotivlar ma’lum bir depolarga biriktirilib, shu yerga qaytadilar, Lokomotivlar aniq bir depoga biriktirilgan, lekin lokomotivlar ish yelkasi temir yo‘l chegaralari bilan mos tushmaydi va lokomotivlarni boshqa temir yo‘llarga «kirishi» yuzaga keladi, bu esa xarajatlarni baholash va bu xarajatlarni kompensatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Vagonlar esa ko‘plab davlat temir yo‘llarida aylanadilar. Shuning uchun spetsifik faoliyat – vagon parklarini tartibga solish ham mavjud.**[Ошибкa! Источник ссылки не найден.]**

Temir yo‘l ekspluatasiya ishini quyidagi turlari mavjud:



• Texnik ekspluatsiya – poyezdlar harakatini tashkil etish, temir yo‘l stansiyalarini loyihalashtirish va ishlatish, yo‘lovchi tashishni tashkil etish.

• Tijorat ekspluatasiyasi - yuk va tijorat ishlarini tashkil etish, iste’molchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish.[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]

Harakatlanuvchi tarkibni tavsiflash, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarga ehtiyojni aniqlash, hamda lokomotiv va vagonlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash uchun temir yo‘lda ekspluatatsiya ishining hajm va sifat ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi.

Hajm ko‘rsatkichlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:[**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]

1. Bajarilgan ish sikllarini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar.

2. Harakatlanuvchi tarkibning bosib o‘tgan masofasini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar.

3. Vagon va lokomotivlar sarflaydigan vaqtini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar.

#### 1.1-jadval

Hajm ko‘rsatkichlarini guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi

Guruh nomi	Guruhdagi ko‘rsatkichlar nomi
<i>Bajarilgan ish sikllarini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar</i>	Ortilgan vagonlar soni  Qo‘sni temir yo‘llardan qabul qilingan va qo‘sni temir yo‘llarga topshirilgan vagonlar soni.  Stansiya ishi nafaqat yuklangan vagonlar soni bilan balki yuk tushirilgan va qayta ishlangan tranzit vagonlar soni bilan ham aniqlanadi
<i>Harakatlanuvchi tarkibning bosib o‘tgan masofasini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar</i>	Vagonlarni bosib o‘tgan masofasi  Lokomotivlarni bosib o‘tgan masofasi
<i>Vagon va lokomotivlar sarflaydigan vaqtini aks ettiradigan ko‘rsatkichlar</i>	Vagonlarni sarflagan vaqt  Lokomotivlarni sarflagan vaqt



## 1.2-jadval

Sifat ko'rsatkichlarini guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Guruh nomi	Guruhdagi ko'rsatkichlar nomi
<i>Tarkib quvvati, vagonlarni yuk ko'tarish qobiliyati va lokomotivlarni tortish kuchi bo'yicha harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish ko'rsatkichlari</i>	Poyezdning o'rtacha og'irligi (brutto, netto); Vagonning o'rtacha yuklamasi (statik, dinamik);
<i>Vaqt bo'yicha harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish ko'rsatkichlari</i>	Poyezd, lokomotivlarning harakatlanish tezligi (uchastka, texnik); Yuk va texnik stansiyalarda vagonlarni o'rtacha turib qolish vaqt; Lokomotivlarni depoda o'rtacha turib qolish vaqt; Vagon va lokomotivlarning o'rtacha sutkada bosib o'tadigan masofasi
<i>Harakatlanuvchi tarkibning unumsiz ish ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar</i>	Vagonlarni bo'sh holda yurish koeffitsienti; Lokomotivlarning yordamchi holda yurish koeffitsientlari (yakka holda yurishi, turib qolish vaqt);
<i>Umumlashtiruvchm (sintetik) sifat ko'rsatkichlari</i>	Vagon, lokomotivlarning to'liq aylanish vaqt; O'rtacha sutkalik ishlab chiqarish (yuk vagoni va poyezd lokomotivining ish unumdarligi).

Sifat va hajm ko'rsatkichlari yagona tizimni tashkil qiladi va formula, nisbatlar yordamida hisoblanishi mumkin. O'z navbatida ko'rsatkichlarni hisoblash bo'yicha ikki turdag'i formula farqlanadi: hajm, unda sifat darajasi ekspluatatsiya



me'yorlaridan foydalangan holda ish hajmi orqali baholanadi; analitik, unda ko'rsatkich boshqa sifat ko'rsatkichlari orqali olinadi.

Yuk tashishda harakatlanuvchi tarkib ishini hajm ko'rsatkichlari rejasi quyidagi tartibda ishlab chiqiladi:

- yuk turlari bo'yicha vagon yuklamalari aniqlanadi va ortish, tushirish, qabul qilingan va tushirilgan vagonlar soni aniqlanadi; tonnada berilgan tashish zichligi vagonga aylanriladi va yukli vagonlarni bosib o'tgan masofasi aniqlanadi;
- uchastkalar bo'yicha yuksiz vagonlarning balansi tuziladi; yuksiz vagonlar soni ortib qolgan va tushirish punktlari, bo'sh vagonlar yetmay qolgan va ortish punktlariga biriktiriladi; yuksiz vagonlarni yonalish sxemasi tuziladi va yuksiz vagonlarni bosib o'tgan masofasi va so'ngra umumiy vagon-kilometrlar aniqlanadi;
- uchastkalar bo'yicha tonno-kilometr brutto hisoblanadi; stansiyalarni qabul qilish va jo'natish yo'llarini uzunligidan va yuk poyezdlarini og'irligi meyordan kelib chiqib poyezdlarni bosib o'tgan masofasi aniqlanadi;
- uchastkalar bo'yicha urnatilgan juft poyezdar soni, itarish punktlari (punkt podtalkivaniya) va ikkilangan tortuv uchastkalarining joylashuvidan kelib chiqib lokomotivning chiziqli bosib o'tgan masofasi aniqlanadi;
- stansiyalarda vagonlarni qayta ishlash hajmiga qarab mahsus manyovr lokomotivlar soni, ularni bosib o'tgan masofasi aniqlanadi, terma poyezdlarning oraliq stansiyalarda turish soni va davomiyligiga qarab esa poyezd lokomotivlarining manevr ishi hajmi aniqlanadi;
- harakatlanuvchi tarkibning bosib o'tgan masofasi haqida uchastka ma'lumotlari, ulardan foydalanishning texnik normalari, depo va stansiyalarning ishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida vagon va lokomotivlarni ishchi parki aniqlanadi.

Hajm ko'rsatkichlar asosida sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Ushbu bosqichlarni qisqacha sxematik ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin.



Rasm 1.1. Harakatlanuvchi tarkib ekspluatatsiya ishini ko'rsatkichlarini aniqlashni texnologik sxemasi

«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» AJning “Asosiy ish, harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish, mehnat unumдорligi, tannarx ko'rsatkichlari ro'yhati va ularni aniqlash tartibi” bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatkichlar tizimi quyidagi guruhlar bo'yicha bo'lingan:

- Yo'lovchi va yuk tashuвларida xajm va sifat ko'rsatkichlari
- Yo'lovchi va yuk xarakatlari bo'yicha texnik ishlarning xajm ko'rsatkichlari
- Yuk vagonlari parkidan foydalanishning sifat ko'rsatkichlari
- Yo'lovchi vagonlari parkidan foydalanish ko'rsatkichlari
- Tashish ishlari va lokomotivlardan foydalanish ko'rsatkichlari
- Mehnat unumдорligi
- Tannarxni aniqlash



Bunday bo‘linish ko‘rsatkichlarni aniqlash tartibini, ketma-ketligini ko‘rsatib bermaydi, balki temir yo‘l transportining ekspluatatsion faoliyatini tavsiflab beruvchi barcha hajm va sifat ko‘rsatkichlarini ekspluatatsiya ishi faoliyatiga qarab tizimlashtirilganligini bildiradi.